

ARAB VA INGLIZ TILLARIDA SIFAT DARAJALARI

Andijond davlat chet tillari instituti,
Ingliz filologiyasi, o'qitish metodikasi va
tarjimashunoslik fakulteti talabasi

Turg'unova Zahroxon,

zahroxonturgunova1@gmail.com

Ilmiy rahbar: Ingliz tili o'qitishning
integrallashgan kursi kafedrası arab tili o'qituvchisi

Nilufarxon Murxanova

Annotatsiya: Ushbu maqola arab va ingliz tillarida sifatning o'rni va ahamiyatini tahlil qiladi. Maqolada arab tilidagi sifatlarning tuzilishi, ularning ishlatilish o'rni va ingliz tilidagi sifatlarning bilan taqqoslanishi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, sifatlarning ma'no va shakllari o'rtasidagi farqlar, hamda ikki til o'rtasidagi o'xshashliklar ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Sifat darajalari, sifat, predmet, bo'g'in, subyekt, qolpi, predlog, orttirma daraja, qiyosiy daraja.

Abstract: This article analyzes the role and importance of adjectives in Arabic and English. The article examines the structure of adjectives in Arabic, the context of their use, and their comparison with adjectives in English. It also analyzes the differences between the meanings and forms of adjectives, as well as the similarities between the two languages

Keywords: Adjective's degree, adjective, object, syllable, subject, parameter, preposition, the superlative degree, the comparative degree.

KIRISH

Sifatlar, tilning asosiy tarkibiy qismlari bo'lib, narsalarning xususiyatlarini ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Arab va ingliz tillarida sifatlarning qo'llanilishi va strukturalari farqlidir. Arab tilida sifatlar fe'l va ism bilan birga ishlatiladi, bu esa ma'noni boyitadi. Ingliz tilida esa sifatlar ko'proq mustaqil ravishda ishlatiladi va ularning joylashuvi jumla tuzilishida ahamiyatlidir. Ushbu maqolada arab va ingliz tillaridagi sifatlarning o'ziga xos jihatlari va ularning o'zaro ta'siri tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

Sifat so'z turkumlardan biri hisoblanib, u gapda otdan avval kelib, uni aniqlaydi.¹ Ingliz tilida sifatlar kelishiklar ta'sirida o'zgarmaydi, shuningdek sonda ham o'zgarmaydi.

Sifat ko'p tillarning har qanday asosiy shakl sinflaridan biriga mansub bo'lgan va odatda nomdagi narsaning sifatini bildirish, uning miqdori yoki hajmini bildirish uchun otning o'zgartiruvchisi bo'lib xizmat qiladigan so'zdir.

¹ arxiv.uz

Sifatlarning shakllari - taqqoslash darajalari²

Bilishmiz bo'yicha, sifatlar bir xil harakatni bajaradigan turli sub'ektlarning o'xshash sifatlarini solishtirish uchun ishlatilishi mumkin. Sifatlarning uchta shakli yoki to'g'rirog'i, taqqoslashning uch darajasi mavjud. Bular:

1. **Oddiy daraja**(*Simple degree*)
2. **Qiyosiy daraja** (*the comparative degree*)
3. **Orttirma daraja**(*the superlative degree*)

Taqqoslashning oddiy darajasi:

Oddiy yoki qiyoslash darajasi asl shaklda ishlatiladigan sifatdash shaklidir. Masalan: This book is **interesting** (Bu kitob qiziqarli). Sifatning bu shakli solishtiriladigan boshqa predmet bo'lmaganda qo'llaniladi.

Taqqoslashning qiyosiy darajasi:

Sifatning qiyosiy shakli bir xil ish-harakatni bajaruvchi yoki bir xil sifatga ega bo'lgan ikki predmetni taqqoslaganda ishlatiladi. Oddiy darajani qiyosiy darajaga o'zgartirish uchun unga **-er** qo'shimchasi qo'shiladi agarda so'z ikki bo'g'indan ko'p bo'lsa **more** so'zi qo'shiladi va so'zdan keyin **than**(-dan ko'ra, qaraganda) so'zi ishlatiladi. Masalan: The book I read yesterday was **more interesting than** the one I read today. (Kecha o'qigan kitobim bugun o'qiganimdan ham qiziqroq edi). The Volga is longer than Dniepr. (Volga Dneprdan uzunroq.)

Taqqoslashning orttirma darajasi:

Taqqoslashning orttirma darajasi ikki yoki undan ortiq sub'ektlarning bir xil sifatini solishtirganda va sub'ektning harakatni bajarishda ikki yoki undan ortiq sub'ektdan ustunligini ifodalash uchun ishlatiladi. orttirma darajani hosil qilish uchun **-est** qo'shimchasi qo'shiladi uch yoki undan ko'p bo'g'indan iborat bo'lsa **the most** so'zi qo'shiladi. Most so'zi doim the aniqlik artikli bilan birga keladi. Masalan: This fantasy novel is **the most interesting** book that I have ever read. (Bu fantastik roman men o'qigan eng qiziqarli kitobdir.)

Sifatlar 3 usulda yasaladi:

1 Sintetik usul: Bu usul sifatlarga **~er** yoki **~est** qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. ³ Ayrim bir bo'g'inli so'zlarning oxirgi harfi ikkilanadi:

big-bigger-biggest.

new-newer-newest

hot-hotter-hottest

big-bigger-biggest

2 Anatomik usul: Ikki va undan ko'p bo'g'inli so'zlarda sifat o'zgarmaydi faqat qiyosiy daraja uchun **more**, orttirma daraja uchun **most** so'zi sifatdan oldin qo'yiladi. Orttirma darajadagi sifatlar oldidan the artikli qo'yiladi.

perfect - more perfect - most perfect

beautiful-more beautiful-most beautiful

comfortable-more comfortable-most comfortable

expensive-more expensive-most expensive

² Ingliz tilidagi asosiy qoidalar Zuhra Nurutdinova Toshkent-2021

³ englishguli.blogspot.com

3 Supletiv usul: Bu sifatlar asosiy qoidalarga binoan emas balki umuman farqli ravishda yasaladi. Bunday sifatlarni yod olish kerak:

bad - worse - worst
good - better - best
far - farther - farthest
late - latter - last kabilar.

Bizga ma'lumki arab tilida sifatlar fe'llardan yasaladi. Arab tilidagi sifatlar ham ingliz tilidagi sifatlar kabi predmet yoki shaxsning belgisini, ya'ni rangini, hajmini, ta'mi va hokazolarni anglatishda ishlatiladi. Shunday qilib predmetning shaklini, hajmini, rangini, xususiyatnini bildirib, uni darajalab ko'rsata oladigan so'zlar sifatlar deyiladi.⁴

Sifatlar arab tilida ham 3 xil darajaga ega: oddiy, qiyosiy, orttirma daraja.

1. Oddiy daraja

⁵ Biz shu vaqtgacha ko'rib kelgan sifatlar, sifatning oddiy darajasiga kiradi. Bu sifatning oddiy, o'zgarmagan holati bo'lib, hech qanday darajani bildirmaydi.

Masalan: كبير, حسن, قريب

Arab tilida sifatlarning 20 dan ortiq vazni mavjud. Shulardan eng kop uchraydiganlari quyidagilardir:⁶

2. Qiyosiy daraja.

Qiyosiy daraja uch undoshli fe'lni افعل (afalu) formasiga tushirish va من (min) predlogini orttirish orqali hosil qilinadi. Bunda qaysi bir predmet yoki shaxs, qaysi bir predmet yoki shaxsning belgisi qiyoslanayotgan bo'lsa o'sha so'z من (min) prelogidan keyin keladi, sifat darajasi esa sonda va jinsda o'zgarmaydi.

Masalan:

مجلة ال اكبر من كتاب - Kitob jurnaldan kattaroq

Misoldan ko'rinib turibdiki sifatning qiyosiy darajasi o'zbek tiliga «*roq*» qo'shimchasi bilan tarjima qilinadi.

Agar من (min) predlogidan keyin bevosita fe'l kelsa, prelogdan keyin ما (ma) yuklamasi orttiriladi;

Masalan: الطقس اليم احرمما كن امس - Ob-havo bugun kechagidan issiqroq.

Shuni ham eslatib o'tish kerakki, agar bir predmet, shu predmetning o'ziga, ma'lum bir vaqt o'tgandan keyin qiyoslanadigan bo'lsa predmetni ikki marta takrorlamaslik uchun o'ziga tegishli olmoshni qo'llash mumkin.

⁴ O'zbekiston Oliy va o'rta mahsus ta'lim vazirligi Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Arab filologiyasi kafedrasida Arab tili fanidan 22.05.00. sharq filologiyasi bakalavriaturasining I-IV kurslari uchun ma'ruza matnlari

⁵ O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI O'ZBEK TILI O'QITISH METODIKASI KAFEDRASI

⁶ Ne'matullo Ibrohimov Arab tili grammatikasi

3. Orttirma daraja.

Orttirma daraja o'z navbatida 2 ga bo'linadi: **a) mutloq orttirma daraja**

b) qiyosiy orttirma daraja

1. Mutloq orttirma daraja.

Mutloq orttirma daraja va qiyosiy orttirma daraja ham **افعل** (af'alu) vaznida bo'lib, mutloq orttirma daraja moslashgan aniqlovchilarday bo'lib keladi, shuning uchun ham u sifatlanmish bilan to'la moslashadi (holatda, kelishikda, jinsda va hokazoda) va o'zbek tilida «...eng...» deb tarjima qilinadi.

Masalan:

الحسن العامل - Eng yaxshi ishchi

Qiyosiy orttirma daraja.⁷

Qiyosiy orttirma daraja **افعل** (af'alu) o'zidan keyin kelayotgan ismni qaratqich kelishigida va aniq holatda bo'lishini talab qiladi, bu vazndagi sifat jinsda o'zgarmaydi.

Masalan: من احسن الطلاب - Eng yaxshi talabalardan

افعل (af'alu) qolipidan keyin ism birlikda noaniq holatda va qaratqich kelishigida kelsa, «eng...lardan biri» deb tarjima qilinadi.

Masalan: طالب الحسن - Eng yaxshi talabalardan biri.

Yuqoridagi ma'lumotlar asosiy tushunchalarni o'z ichiga oladi va murakkab holatlar ko'pgina istisnolarni o'z ichiga olishi mumkinligini yodda tutish kerak.

XULOSA

Sifat darajalari arab va ingliz tillarida muhim grammatik elementlaridandir. Har bir tilda o'xshash va farqli tomonlari bo'lgani kabi bu ikki tilda ham mavjud. Arab tilida sifatlar uch darajaga bo'linadi: oddiy, qiyosiy va orttirma daraja (af'al). Ingliz tilida esa sifatlar ham uch darajaga ega huddi arab tilidagi kabi : oddiy (positive), qiyosiy (comparative) va orttirma daraja (superlative degree). Bu darajalar sifatning nisbiyligini ko'rsatish va taqqoslash imkonini beradi, shuningdek, fikrlarni aniq ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Sifat darajalari til o'rganishda asosiy ko'nikmalardan biri bo'lib, muloqotning aniqliligini ta'minlaydi. Shunday qilib, arab va ingliz tillaridagi sifat darajalari til o'rganuvchilar uchun muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://arxiv.uz>

2. Ingliz tilidagi asosiy qoidalar Zuhra Nurutdinova Toshkent 2021

3. <https://englishgili.blogspot.com>

4. O'zbekiston Oliy va o'rta mahsus ta'lim vazirligi Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Arab filologiyasi kafedrasida Arab tili fanidan 22.05.00. sharq filologiyasi bakalavriaturasining I-IV kurslari uchun ma'ruza matnlari

5. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI O'ZBEK

⁷ Talabov E.T. "Arab tili darsligi" T.1995.

TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI O'ZBEK TILI O'QITISH METODIKASI
KAFEDRASI SHARQ TILLARI (ARAB TILI) fanidan (o'quv-uslubiy majmua)
JIZZAX 2016

6. Ne'matullo Ibrohimov Arab tili grammatikasi

7. Talabov. E. T. "Arab tili darsligi" T. 1995